

# INTERNET TILINING O‘ZIGA XOS PUNKTUATSION

## XUSUSIYATLARI

*Ahmedova Kamola Kudratovna*

*UrDU, tayanch doktorant*

**Annotatsiya:** Quyidagi maqolada punktuatsiyaning til tizimida tutgan o‘rni hamda mediamuloqotida uning o‘ziga xos jihatlari xususida mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** punktuatsiya, orfografiya, virtual diskurs, internet tili, adabiy til me’yorlari

**Аннотация:** В статье рассматривается роль пунктуации в языковой системе и её особенности в медиакоммуникации.

**Ключевые слова:** пунктуация, орфография, виртуальный дискурс, интернет-язык, нормы литературного языка.

**Annotation:** The article examines the role of punctuation in the language system and its features in media communication.

**Key words:** punctuation, spelling, virtual discourse, Internet language, literary language norms.

Punktuatsiya – muayyan til yozuv sistemasining tarkibiy qismidir. Punktuatsiya qoidalarini puxta egallash va ulardan amalda o‘rinli foydalanish yozma nutq uchun muhimdir. Punktuatsiya umumxalq, umummillat madaniy boyliklaridan hisoblanadi. Undan fan, adabiyot, nashriyot, matbuot va maorif hodimlari – barcha kengfoydalanadi. Punktuatsiya so‘zi lotincha punktium (punkt – nuqta, belgi, shakl) so‘zidan olingan bo‘lib, uch ma’noda ishlatiladi: tinish belgilari sistemasini o‘rgatuvchi bo‘lim, tinish belgilarining qo‘llanish qoidalari va tinish belgilari ma’nolarida yuritiladi. Punktuatsiya tinish belgilarining qo‘llanilishi haqidagi yagona qonun-qoidalalar yig‘indisidir. Punktuatsiya tinish belgilarining miqdori, funksiyasi, qo‘llanish sistemasi va tartibini o‘rgatadi. Harflar yig‘indisi alfavitni, to‘g‘ri yozuv qoidalari yig‘indisi orfografiyani, to‘g‘ri talaffuz normalari orfoepiyani tashkil etganidek, tinish belgilar sistemasi punktuatsiyani vujudga keltiradi[1, 7].

Punktuatsiya masalalari bilanbevosita shug‘ullangan H. G‘oziyev, G‘. Abdurahmonov, Q. Nazarov larning asarlari etilganiga ancha yillar bo‘ldi va ulardagi tinish belgilarining ishlatalishi haqidagi fikr-mulohazalar ham bir qadar o‘zgardi. Buning ustiga, “muallif punktuatsiyasi” ya’ni muayyan muallif tomonidan tinish belgilarining amaldagi qoidalarga bo‘ysunmagan, unga rioya qilmagan holda individual qo‘llash holatlari uchraydiki, bu ham keng o‘quvchilar ommasini chalkashtiradi, shubhalantiradi[2, 5]. Turli yozuv vositalari orqali ko‘rsatib berish mumkin bo‘lmagan yoki murakkab bo‘lgan holat hamda munosabatlarni ifodalashda tinish belgilari o‘ziga xos rol o‘ynaydi.

Virtual diskursda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash qoidalariga deyarli yo‘l qo‘yilmaydi. Bundan asosiy maqsad vaqtini hamda xabar jo‘natishda qo‘llaniladigan belgilar sonini tejashdir. Tuzilishi jihatidan qanday gap bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zida darak mazmunini ifodalab kelgan bo‘lsa, albatta nuqta tinish belgisi qo‘yiladi. Ijtimoiy tarmoq sahifalaridagi yozishmalarda nuqta tinish belgisi deyarli kuzatilmaydi.

A: *Assalomu aleykum yaxshimisizlar.*

*Turk tilidansertifikat olishim kerak edi*

*Oktabr doktoranturaga topshirmoqchiman*

*Qayerda o‘rgansam bo‘ladi*

*turk tilini*

*Kimda ma’lumot bor iltimos aytib yuboringlar*

(“Telegram”dan)

Tinish belgilarini qo‘llash standartlariga ko‘ra, ko‘pnuqta mazmunan tugallanmagan darak gaplardan so‘ng, xabar muallifining ikkilanish, hayajonlanish yoki o‘yga tolish singari holatlarini, gapdagi uzilishlarni, nutq davomida bir fikrdan ikkinchisiga kutilmaganda o‘tishni ifodalashda qo‘llaniladi. Onlayn muloqot jarayonida esa, ko‘pincha suhabatdosh nima deyishini bilmagan vaziyatda qo‘llaniladi.

A: *Bormisan*

B: *Bormiz, bormiz, bu oy ham stipendiya ertaroq tushmasmikan?*

A: .....

B: ????

(“Telegram”dan)

Ma'lum-ki, so'roq mazmunini ifodalab kelgan gaplardan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi. Ritorik so'roq gaplar ham bundan mustasno emas. Virtual diskursda esa jo'natilayotgan xabar mazmunidagi emotSIONallikni yanada kuchaytirish maqsadida bittadan ko'proq marta qo'llanilish holatlari ham ko'p kuzatiladi. So'roq mazmunini bildirib kelgan xabarlardan so'ng deyarli so'roq belgisi qo'yilmaydi. Chunki joriy vaziyatdan so'roq mazmuni so'roq belgisisiz ham anglashiladi. Shuning uchun ham tarmoq foydalanuvchilari ko'pincha tinish belgilarini tushirib qoldirishadi. Yuqorida keltirilgan misolda ham, so'roq mazmunini bildirgan gapdan keyin tegishli ravishda so'roq belgisi qo'yilmagan va aksincha keyingi qatorlarda so'roq mazmunini yanada kuchliroq ifodalash maqsadida so'roq belgisi takror qo'llanilgan.

Har bir mavjud til o'zining imloviy, punktuatsion qoidalariga ega bo'lib, tarmoq chatlarida ushbu qoidalarga deyarli bo'ysunilmaydi. Chunki muloqotning onlayn shakli, ham yozma, ham og'zaki nutqqa xos elementlarni o'zida umumlashtirar ekan, ushbu jarayon bir vaqtning o'zida adabiy til me'yorlariga to'liq javob beradigan leksik birliklardan iborat bo'lsa, ayni damda ko'cha tiliga xos jihatlarni ham o'zida mujassam etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Q. Nazarov. “Tinishbelgilarivayozmanutq”. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1974.
- N.M.Mahmudov, A.P.Madvaliyev, N.Mahkamov. “O'zbek tili punkuatsiyasining asosiy qoidalari”. Toshkent: “O'zbekiston” NMIU ,2015.
- Akhmadjonov Nurbek FerSU, PhD in philology, Yusupova Mohibonu FerSU, Student. Allusive Names in Artistic Texts. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 02 Issue: 02 | 2023 ISSN: 2751-756X. Page 34-38
- Axmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD). German language teacher of Fergana State University <https://doi.org/10.5281/zenodo.7805868>. LINGOCULTURAL

CHARACTERISTICS OF ALLUSIVE ANTHROPOONYMS IN ARTISTIC TEXT. JAH ISSN:2770-9132 JOURNAL OF AGRICULTURE & HORTICULTURE. International scientific journal. JAH UIF=8.1|SJIF=5.69. JAH | Volume 3, Issue 4, April Page 17-21